

# JAMIYAT 5.0 JARAYONIDA DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI ISTIQBOLLI KADRLAR VA ISH SHAKLIGA SUN'IIY INTELLEKTNING TA'SIRI

**Pardayev Umidjon Uralovich**

Phd, dosent

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14214526>

Jamiyat 5.0 kontseptsiyasi inson farovonligini oshirish, iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirish va ekologik muvozanatni ta'minlashga qaratilgan. Bu kontseptsiya ilk bor 2016-yilda Yaponiyada taqdim etilgan va uning asosiy tamoyili – texnologik rivojlanish orqali inson ehtiyojlarini qondirishni ta'minlashdir. Jamiyat 4.0 raqamli transformatsiya asosida shakllangan bo'lsa, Jamiyat 5.0 sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va IoT texnologiyalari bilan yanada kengroq imkoniyatlarni yaratadi<sup>1</sup>. Ushbu kontseptsiya davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ijtimoiy hayot sohalarini qamrab oladi. Asosiy maqsad davlat boshqaruvining barcha jabhalarida aqlli boshqaruv tizimlarini joriy etishdir. Yaponiyada "Aqlli shaharlar" loyihalari orqali bu kontseptsiya muvaffaqiyatli joriy etilmoqda. Bu jarayon davlat xizmatlarini shaxsiylashtirish va tezkorlashtirishga xizmat qiladi.

Jamiyat 5.0 davlat boshqaruv organlariga sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi. Hukumatning qaror qabul qilish jarayonlarida katta ma'lumotlar va sun'iy intellekt asosida muammolarni aniqlash va yechimlarni taklif qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Singapurda sun'iy intellekt transport boshqaruvi tizimlarini yaxshilash va tirbandlik muammolarini hal qilish uchun muvaffaqiyatli joriy etilgan<sup>2</sup>. Bu usul boshqaruv samaradorligini oshiradi va resurslardan tejimli foydalanish imkonini beradi.

Bundan tashqari, Yaponiya hukumatining "Society 5.0" strategiyasi asosida IoT va katta ma'lumotlar platformalari orqali aholining sog'liqni saqlash, transport va kommunal xizmatlar sohasidagi muammolari tezkorlik bilan hal etilmoqda.

Raqamli platformalar davlat xizmatlarini avtomatlashtirish va qulaylashtirish imkoniyatini beradi. Elektron hukumat (e-Government) tizimlari orqali fuqarolar davlat xizmatlariga masofadan murojaat qilish imkoniga ega bo'lishmoqda. Masalan, Estoniya butun boshqaruv tizimini raqamlashtirish orqali davlat xizmatlarining deyarli 99 foizini onlayn shaklda taqdim etmoqda<sup>3</sup>. Bu nafaqat shaffoflikni oshirdi, balki fuqarolar va davlat o'rtasidagi muloqotni sezilarli darajada soddalashtirdi.

Jamiyat 5.0 doirasida davlat boshqaruv organlari uchun quyidagi yangi vazifalar dolzarblik kasb etmoqda: Shaffof boshqaruvni ta'minlash masalasida blokcheyn texnologiyalari yordamida moliyaviy xarajatlar va boshqa jarayonlarning oshkoraligi ta'minlanmoqda<sup>4</sup>. Ekologik muvozanatni saqlashda yashil texnologiyalarni joriy qilish orqali ekologik barqarorlikka erishish maqsad qilingan bo'lsa, samarali resurs boshqaruvi masalasida texnologiyalar yordamida davlatning insoniy va moddiy resurslarini optimallashtirishni nazarda tutadi. Masalan, Yaponiya Jamiyat 5.0 doirasida shahar infratuzilmasini aqlli boshqaruv tizimlari

---

<sup>1</sup> Fukuyama, M. (2018). Society 5.0: Aiming for a New Human-Centered Society. Japan Spotlight, 27-30.

<sup>2</sup> World Economic Forum. (2021). AI in Singapore: Advancing Transport Systems. Retrieved from: <https://www.weforum.org>

<sup>3</sup> Estonian Information System Authority. (2022). E-Government in Estonia: A Global Leader. Retrieved from: <https://www.ria.ee>

<sup>4</sup> Deloitte. (2020). Blockchain for Transparency in Public Sector. Deloitte Insights.

yordamida transformatsiya qilish bo'yicha global yetakchilardan biri hisoblanadi. Masalan, Tokio shahrida IoT va AI orqali transport tizimi avtomatlashtirilgan va shahar yo'llaridagi tirbandlik 20 foizga qisqartirilgan<sup>5</sup>. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida ham davlat boshqaruvida Jamiyat 5.0 tamoyillarini joriy qilishga intilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda Elektron Hukumat markazi tomonidan raqamli platformalarning joriy qilinishi davlat xizmatlarining sifatini oshirishga qaratilgan muvaffaqiyatli ishlayotgan platformalar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Sun'iy intellekt (AI) davlat boshqaruvi jarayonlarida katta o'zgarishlarni olib kelmoqda. AI texnologiyalari yordamida davlat boshqaruvining barcha darajalarida samaradorlik oshirilmoqda. AI texnologiyalari katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishda va qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt orqali rejalashtirish va monitoring tizimlari yanada samarali ishlamoqda. Masalan, Hindistonda davlat infratuzilmasi loyihalari uchun AI asosida monitoring tizimlari joriy qilingan. Bu tizimlar qurilish jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatib borishga imkon berib, qoidalarga rioya qilinishini ta'minlaydi. O'zbekiston uchun AI asosidagi monitoring tizimlari davlat dasturlarining bajarilish samaradorligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin deb o'ylaymiz.

Sun'iy intellektning jadal rivojlanishi davlat boshqaruvi tizimida ishlovchi kadrlar malakasiga qo'yiladigan talablarni oshirmoqda. Raqamli savodxonlik, algoritmlarni tushunish va katta ma'lumotlar bilan ishlash qobiliyatlari kelajakdagi kadrlar uchun zaruriy kompetentsiyalar hisoblanadi. O'zbekistonda raqamli kompetentsiyalarni oshirish bo'yicha bir qancha loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, “Raqamli O'zbekiston – 2030” dasturi doirasida davlat xizmatchilariga IT va AI texnologiyalari bo'yicha o'quv kurslari tashkil qilinmoqda. Bu kurslar davlat boshqaruvi tizimida ishlovchi kadrlarning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini oshirishga qaratilgandir.

Sun'iy intellekt rutin jarayonlarni avtomatlashtirishda yetakchi vosita hisoblanadi. Masalan, davlat boshqaruvida AI texnologiyalari xodimlarning ma'lumotlarni qayta ishlash va hisobot tayyorlash jarayonlarini avtomatlashtirishga imkon beradi. Bu esa vaqt va inson resurslarini tejaydi. Masalan, Deloitte kompaniyasi habar berishicha AQShda davlat daromadlari bo'yicha AI yordamida soliq tekshiruvlari avtomatlashtirilmoqda<sup>6</sup>.

Avstraliya hukumati AI asosida ishlovchi avtomatlashtirilgan xizmatlarni davlat boshqaruvida keng joriy qilgan. Misol tariqasida Centrelink xizmatlarini keltirish mumkin, bu tizim AI yordamida murojaatlarni avtomatik qayta ishlaydi va ehtiyojmand fuqarolar uchun ijtimoiy yordamni aniqlaydi<sup>7</sup>.

Sun'iy intellekt rivoji natijasida bir qancha an'anaviy kasblar yo'q bo'lmoqda, ayniqsa ma'lumotlarni qayta ishlashga asoslangan sohalarida. Shu bilan birga, yangi kasblar, masalan, AI muhandislari, ma'lumotlar tahlilchilari va kiberxavfsizlik bo'yicha mutaxassislar paydo bo'lmoqda. Yaponiyada 2021-yilgi hisobotga ko'ra, AI mutaxassislarga bo'lgan talab 25% ga oshgan<sup>8</sup>. Yaponiyada sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi AI mutaxassislarga bo'lgan talabni keskin oshirdi. Masalan, 2020-yilda ishlab chiqarishda AI algoritmlarini boshqaruvchi mutaxassislar soni ikki barobar ko'paydi.

<sup>5</sup> Japan Times. (2021). Smart Cities and IoT in Tokyo.

<sup>6</sup> Deloitte. (2020). AI in Public Services. Retrieved from: <https://www2.deloitte.com>

<sup>7</sup> Australian Government Services. (2021). *Centrelink and AI in Public Service Delivery*. Retrieved from: <https://www.servicesaustralia.gov.au>

<sup>8</sup> Fujitsu. (2021). AI in Japanese Labor Market. Retrieved from: <https://www.fujitsu.com>

Sun'iy intellektning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri sanoat va qishloq xo'jaligi sohasida o'z aksini topmoqda. Masalan, qishloq xo'jaligida AI texnologiyalari yordamida hosildorlikni prognoz qilish va zararkunandalarga qarshi kurashni optimallashtirish imkonini berdi. Avstraliyada sun'iy intellekt yordamida fermerlar uchun 30% resurs tejalgan.

Yuqoridagi ijobiy jihatlar bilan bir qatorda, AI texnologiyalarining noto'g'ri qo'llanishi yirik etik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Misol uchun, yuzni aniqlash texnologiyalaridan noqonuniy kuzatuv yoki diskriminatsion qarorlar qabul qilishda foydalanish xavfi mavjud. AI tizimlaridan foydalanishda shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi dolzarb masala hisoblanadi. Bu borada Yevropa Ittifoqining GDPR (General Data Protection Regulation) standartlari AI asosidagi texnologiyalar uchun namunaviy huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. GDPR shaxsiy ma'lumotlarning AI tizimlari orqali noto'g'ri ishlatilishini oldini olish uchun qat'iy qoidalarni belgilaydi. Ushbu standartlar yordamida foydalanuvchilar ma'lumotlari ustidan nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda<sup>9</sup>.

O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalari sohasida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga qaratilgan qator qonunchilik hujjatlari qabul qilingan. Jumladan, 2022-yilda ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha yangi qonun qabul qilindi va AI texnologiyalaridan foydalanishda axborot xavfsizligini ta'minlash choralari belgilandi.

UNESCO sun'iy intellektni axloqiy tamoyillarga asoslangan holda rivojlantirish bo'yicha global standartlarni ishlab chiqdi. Ushbu standartlar sun'iy intellekt texnologiyalarini ijtimoiy tenglikni saqlagan holda qo'llashni ta'minlashga qaratilgan. UNESCO ta'lim, ilm-fan va madaniyat sohasida AI imkoniyatlarini keng qo'llashni tavsiya etadi.

BMT sun'iy intellektni tinchlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishni tezlashtirish va global muammolarni hal qilishda muhim vosita sifatida ko'radi. BMTning "AI for Good" dasturi orqali davlat boshqaruviga AI texnologiyalarini integratsiya qilish va global miqyosda ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash masalalari muhokama qilinmoqda.

AI texnologiyalari avtomatlashtirishni tezlashtirgani sababli ayrim kasblar yo'qolib bormoqda. Bu o'z navbatida texnologik ishsizlik xavfini oshiradi. Ushbu muammoni hal qilish uchun AQSh va Yevropa davlatlarida qayta tayyorlash dasturlari amalga oshirilmoqda. Masalan, Germaniyada davlat tomonidan moliyalashtiriladigan "AI Training Program" orqali ishsiz fuqarolar AI bilan bog'liq kasblar bo'yicha qayta o'qitilmoqda. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o'tish doirasida texnologik ishsizlik xavfini kamaytirish uchun qayta tayyorlash dasturlari rejalashtirilmoqda. Xususan, "Raqamli kasblar" dasturi doirasida IT sohasida 50 mingdan ortiq yangi mutaxassislar tayyorlanishi ko'zda tutilgan.

### **Xulosa**

Sun'iy intellekt (AI) davlat boshqaruvida samaradorlik va shaffoflikni oshiruvchi asosiy vositalardan biriga aylanmoqda. Jamiyat 5.0 kontseptsiyasi sun'iy intellektni inson ehtiyojlariga moslashtirilgan boshqaruv tizimiga aylantirishni maqsad qilgan. Bunda AI texnologiyalari qaror qabul qilish, resurslarni boshqarish va fuqarolar bilan muloqotni samarali tashkil qilishda strategik ahamiyatga ega. Global tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, sun'iy intellekt texnologiyalarini davlat boshqaruviga keng joriy qilgan mamlakatlar iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanish qulayligini ham ta'minlashga xizmat qiladi.

Estoniya, Finlyandiya va Singapur kabi mamlakatlar davlat xizmatlarini avtomatlashtirish va sun'iy intellekt orqali optimallashtirish bo'yicha muvaffaqiyatli misollarni ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, AI rivoji mehnat bozorida yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga texnologik

---

<sup>9</sup> European Commission. (2020). GDPR: A Framework for Data Protection. Retrieved from: <https://ec.europa.eu>

ishsizlik xavfini ham yuzaga keltirmoqda. Bu jarayonda qayta tayyorlash dasturlarining roli ortmoqda. Etik va huquqiy masalalar, ayniqsa ma'lumotlar xavfsizligi va AI texnologiyalarining noto'g'ri qo'llanishi bilan bog'liq muammolar, sun'iy intellektni joriy qilishda hal qilinishi lozim bo'lgan asosiy masalalardir.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o'tish doirasida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish uchun zarur infratuzilmani yaratish, kadrlar malakasini oshirish va AI texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun qonunchilikni takomillashtirish muhimdir. Ushbu jarayon mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### *Tavsiyalar*

Sun'iy intellekt texnologiyalarini davlat boshqaruviga joriy qilish uchun avvalo AI strategiyasini ishlab chiqish lozim. Har bir davlat boshqaruv organi o'z faoliyatiga mos AI texnologiyalaridan foydalanish strategiyasini belgilashi kerak. Bu strategiyalar davlat xizmatlarini avtomatlashtirish, qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirish va resurslardan samarali foydalanishga yo'naltirilishi kerak. Bundan tashqari, sun'iy intellektni muvaffaqiyatli joriy qilish uchun zarur infratuzilmani, jumladan, yuqori tezlikdagi internet tarmog'ini, ma'lumotlarni qayta ishlash markazlarini va xavfsiz axborot tizimlarini yaratish zarur.

AI bilan ishlay oladigan malakali kadrlar tayyorlash uchun maxsus o'quv dasturlari va malaka oshirish kurslarini tashkil qilish muhimdir. Bu jarayonda xalqaro hamkorlik va texnologik yetakchi mamlakatlarning tajribasini o'rganish orqali kadrlar malakasini oshirish muhim qadam hisoblanadi.

Sun'iy intellektning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun mehnat bozorini diversifikatsiya qilish zarur. Bu AI texnologiyalarining avtomatlashtirish jarayonida yo'q bo'lishi mumkin bo'lgan kasblarni aniqlash va yangi kasb-hunarlar bo'yicha qayta tayyorlash dasturlarini amalga oshirishni talab qiladi. O'zbekistonda "Raqamli kasblar" dasturi kabi tashabbuslar sun'iy intellekt rivojlanishiga moslashtirilib kengaytirilishi lozim. Shuningdek, kichik va o'rta biznesni sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga rag'batlantirish uchun maxsus subsidiyalar va davlat dasturlarini joriy etish tavsiya etiladi.

Sun'iy intellektni davlat boshqaruvida qo'llashda huquqiy reglamentatsiya muhim ahamiyatga ega. Bunda Yevropa Ittifoqining GDPR kabi xalqaro standartlariga mos keluvchi qonunchilikni ishlab chiqish lozim. Shuningdek, sun'iy intellektni axloqiy me'yorlarga mos ishlatish uchun maxsus davlat organlari tomonidan monitoring tizimlarini tashkil qilish zarur. Bu tizimlar AI texnologiyalarining shaffofligini ta'minlash va ularning noto'g'ri ishlatilishini oldini olishga xizmat qiladi.

Davlat boshqaruvini innovatsion darajaga olib chiqish uchun AI asosida ishlovchi chatbotlar va avtomatlashtirilgan xizmatlarni joriy qilish tavsiya etiladi. Bu fuqarolar bilan tezkor muloqotni ta'minlab, davlat xizmatlarining qulayligini oshiradi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt yordamida davlat xizmatlarini shaxsiylashtirish, ya'ni har bir fuqaroning ehtiyojlariga mos xizmatlarni taqdim etish orqali xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirishi lozim. UNESCO va BMT kabi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalaridan foydalanish va ilg'or mamlakatlarning tajribalarini o'rganish AI sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, Estoniya, Singapur va Finlyandiya tajribalari asosida mahalliy sharoitga moslashgan AI texnologiyalarini joriy etish muhimdir.

Kelgusida AI texnologiyalarining davlat boshqaruvidagi iqtisodiy samaradorligini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar yordamida resurslardan tejamli foydalanish va xizmatlar sifatini oshirishning aniq moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilish lozim.

Shuningdek, mahalliy infratuzilmaga mos sun'iy intellekt modellarini yaratish va ularning prototiplarini sinovdan o'tkazish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazish zarur.

Fuqarolar va davlat o'rtasida ishonchni mustahkamlash maqsadida sun'iy intellekt texnologiyalarining shaffofligi va xavfsizligini o'rganish ham dolzarb yo'nalish hisoblanadi. Shuningdek, sun'iy intellekt bilan bog'liq axloqiy muammolarni aniqlash va ularga qarshi strategiyalar ishlab chiqish kelgusi tadqiqotlar uchun muhim mavzular hisoblanadi.

Ushbu tavsiyalar davlat boshqaruvida sun'iy intellektdan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va aholining davlat xizmatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga yordam beradi.